



POLAND



POLAND

O'ZBEK XALQINING BAG'RIKENGLIK AN'ANASI VA UNING IJTIMOIY AHAMIYATI

Abduraimov Eldor Qurbonboy o'g'li

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika
instituti o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15730551>

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek xalqining qadimiy bag'rikenglik an'anasi, uning tarixiy ildizlari va bugungi ijtimoiy hayotdagi o'rni tahlil qilinadi. O'zbek jamiyati asrlar davomida turli din va madaniyat vakillarini o'z bag'riga sig'dirib, o'zaro hamjihatlik, diniy totuvlik va ijtimoiy barqarorlik muhitini yaratgan. Maqolada zardushtiylik, islom va boshqa diniy-falsafiy oqimlarning bag'rikenglik tamoyillariga qo'shgan hissasi yoritiladi. Shuningdek, bugungi kunda millatlararo totuvlik va diniy erkinlikni ta'minlashda bu qadriyatlarning nechog'li dolzarb ekani ko'rsatib beriladi. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi, ma'naviy merosning tiklanishi, konstitutsiyaviy asoslarda barqaror jamiyat qurish yo'lidagi sa'y-harakatlar alohida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar. Bag'rikenglik an'anasi, o'zbek xalqining ma'naviy qadriyatlari, diniy totuvlik, millatlararo hamjihatlik, ijtimoiy barqarorlik, zardushtiylik ta'limoti, islomiy insonparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi, Konstitutsiyaviy huquqlar, ma'naviy merosning tiklanishi.

Insonparvarlik millatimiz ma'naviyatining ajralmas qismi, milliy o'zligining asosiy negizidir. Insonparvarlik ko'p qirrali tushuncha bo'lib, o'z ichiga millatlararo totuvlik, ijtimoiy va diniy bag'rikenglik, o'zaro hamkorlik, oliyjanoblik, sahiylik kabi ma'naviy-axloqiy xususiyatlarni qamrab oladi. Milliy mafkura millati, tili va dinidan qat'iy nazar, har bir fuqaroni yagona Vatan baxt-saodati uchun, buyuk kelajak va ulug'vor maqsadlar sari birlashtirish yo'lida asosiy g'oyaviy kuch sifatida o'rin tutadi.

Mamlakatimiz Birinchi Prezidenti Islom Karimov milliy va diniy bag'rikenglikning, turli din vakillari o'rtasidagi totuvlikning tarixiy ildizi, tabiiy-iqtisodiy omillari haqida shunday yozadi: "Bu zaminda istiqomat qiladigan xalqlarning tarqoq bo'lib yashashga imkoni yo'q edi. Tabiatning o'zi, hayotning o'zi ularni shu ruhda tarbiyalagan", "Jamuljam bo'lib yashash tuyg'usi biz uchun hayot qoidasiga aylanib ketgan".¹

Shu muqaddas ona diyorumiz hududida paydo bo'lgan dastlabki diniy tasavvurlarda, keyinchalik Markaziy Osiyo, Eron va boshqa hududlarga keng yoyilgan zardushtiylik ta'limotida yer, suv, havo, olov hayot manbalari sifatida e'zozlangan.

¹ Каримов И.А. Юксак маънавият-енгилмас куч. -Т.: -2008.- 6.6.10-11



Zardushtiylik ta'limoti yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi kurash hamda ezgulikning tantana qilishi bilan ifodalanadi. Shu sababli zardushtiylikning axloqiy asosini uchta narsa – ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu amal tashkil etadi.

Zardushtiylik jamiyatda odamlar tinch-totuv yashashining, bir-biriga samimiy, hurmat-izzat asosida munosabatda bo'lishining, bir-biriga o'zaro yordam ko'rsatish tarafdori bo'lib, zo'ravonlikka, shafqatsizlikka, shuhratparastlikka, kibr-havoga berilmaslik, axloq me'yorlari va qonunlariga rioya qilish, hasad, tuhmat, jahlga yo'l qo'ymaslik, aytilgan so'zning ustidan chiqish kabi fazilatlar ulug'lanadi. O'sha davrlardan beri kishilarning jamiyatdagi munosabatlarini tartibga solib turuvchi urf-odatlar, an'analar, axloqiy qoidalar shakllangan va jamiyat taraqqiyotining keyingi bosqichlarida o'zining muhim ijobiy rolini o'ynagan. Hatto bugungi kunda ham zardushtiylik dinidan meros bo'lib qolgan va asrlar davomida xalqimizning urf-odatlari, an'analari bilan qorishib, turmush tarzimizga singib ketgan bir qator qadriyatlar saqlanib kelinmoqda. Jumladan, suv va havoni toza, musaffo saqlash, yerga mehr qo'yish, dehqonchilik va chorvachilikni e'zozlash, yer, tabiat, hosil bilan bog'liq bayramlarni nishonlash kabi an'analarning saqlanib qolganligi bu diniy ta'limotning nechog'lik yashovchan va bezavol g'oyalarga asoslanganligidan dalolat beradi. Azal-azaldan diyorimizda budda, moniylik, yahudiylik, nasroniy va islom dinlariga odamlar e'tiqod qilib yashab kelishgan. Yurtimiz hududida masjidlar qatori budda ibodatxonalari, xristian cherkovlari, yahudiy sinagogalarining mavjud bo'lganligi turli elat va dinga mansub qavmlarning o'z diniy ta'limoti va amallarini erkin bajarib kelganligidan dalolat beradi. Xuddi shuning uchun ham tariximizning eng murakkab, og'ir damlarida ham diniy asosda mojarolar ro'y bermaganligi xalqimizning dinlararo bag'rikenglik borasida tajribali ekanligidan dalolatdir.

Chunki mamlakatimiz hududiga turli tarixiy jarayonlarda kirib kelgan budda, nasroniy, yahudiy dinlari ta'limotlarida ham, xuddi islom g'oyalaridagi kabi o'g'rilik, qotillik, gumrohlik, yolg'on so'zlash, o'zgalar haqiga xiyonat, zulm, jabr-sitam ko'rsatish, kibr qoralanadi va axloq normalariga zid hodisalar sifatida nazorat ostiga olinadi hamda gunoh deb belgilanadi.

To'g'rilik, yaxshilik, kamtarlik, mehr-shafqatli bo'lish, odamiylik, donolik kabi sifatlar ulug'lanadi. Islomdagi yuksak g'oyalarning xalqimiz tomonidan e'tirof etilishida va bu g'oyalarning dunyoga yoyilishidagi buyuk salaflarimizning ko'rsatgan beqiyos ma'rifiy ishlari islomning avvalgi dinlar bilan g'oyaviy mushtarakligi, yaqinligi deb qarashga imkon beradi.



POLAND



POLAND

Agar jamiyat a'zolari umumiy maqsad yo'lidagi g'oyalarni bevosita o'z taqdiri bilan bog'liq holda anglasalar, har bir fuqaro o'z taqdirini jamiyat taqdiri, o'zi yashayotgan mamlakat taqdiri bilan bog'liq holda tushunsa, mamlakat aholisi o'rtasida yaxlit ijtimoiy birlik vujudga keladi. Ana shunday ma'naviy — ruhiy yakdillik holati esa jamiyatda umumiy ijtimoiy — siyosiy barqarorlikni ta'minlashning asosi bo'lib xizmat qiladi².

Islom dinining asosiy vazifasi imon va e'tiqodli insonni tarbiyalash hisoblanadi. Faqat ezgu- niyat va yaxshi ishlar qilish, o'z halol mehnati mahsuli orqali kun kechirish, odamlar bilan munosabatda to'g'riso'z, samimiy, xushmuomalali bo'lish, birovlarini, shu jumladan, boshqa millat, boshqa din vakillarini kamsitmaslik, ayollar, yosh bolalar, yetim-yesir, nogiron va bechoralarga g'amxo'r bo'lish, ularga yordam ko'rsatish, to'g'ri yashash imon talablaridan hisoblanib, ular insonning ma'naviy dunyosini mukammallik sari yetaklaydi. Bu esa insondan to'g'rilikni, mehnatsevarlik, zakovat, mustaqil fikr yuritish, irodali bo'lishni, ruhan va aqlan tetik bo'lishni taqozo etadi. Islomda yomonlik, munofiqlik qoralanadi. Hadisi sharifda aytilganidek: "Munofiqlarning belgisi uchta — yolg'on so'zlash, va'daning ustidan chiqmaslik va omonatga xiyonat qilish"dir. Islomdagi bunday g'oyalar va amallar odamni yolg'on so'zlashdan, va'daga vafo qilmaslikdan, manmanlikdan, ichkilikbozlik, giyohvandlik kabi hayolni o'g'irlovchi narsalarni iste'mol qilishdan tiyilishda, nafs balosi girdobiga yo'liqmaslik, axloqsizlik qilishdan saqlanishga chaqiradi. "Mamlakatimizda diniy erkinlik, millatlararo hamjihatlik borasida ham vaziyat tubdan yaxshilandi. Bu boradagi faoliyatimizning o'zagini "Bag'rikenglik va millatlararo totuvlik - barqaror taraqqiyot omili", degan tamoyil tashkil etadi"³.

Aziz yurtimiz o'zining tom ma'nodagi istiqboliga erishgach mamlakatimiz xalqi hayotidagi barcha o'zgarish, yangilanish, yutuq va muvaffaqiyatlar zamirida Asosiy Qonunimiz turadi. Zero, Asosiy Qonun — jamiyatimizning huquqiy mezon bo'lib hisoblanadi.

Bosh Qomusimizda xalqimiz ruhiga hayot tarzi va urf-odatlariga mos keladigan imon-e'tiqod, adl-insof, diyonat, mehr-oqibat or-nomus, iffat va hayo kabi eng ezgu fazilatlar mujassamdir. Asosiy Qonunimizda jinsi, millati, dini, irqi, yoshi, e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi va fuqarolarning teng huquqli ekanligida, o'ylaymizki, ajdodlarimizdan meros bo'lib kelayotgan milliy qadriyatlarimiz va bebaho an'analarimizning beqiyos o'rni bor. Ming yilliklar davomida ajdodlardan avlodlarga, ota-onalardan farzandlarga, vorislarga o'tib kelayotgan

² Жўраев Н. Исон ва жамият. -Т.: - 2005. — 6. 181

³ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. - Тошкент: "Ўзбекистон" нашриёти, 2021. - 58 б.



va dunyoning hech bir burchagida takrorlanmaydigan ajoyib munosabatlar, insoniy fazilatlar Asosiy Qonunimizda o'z o'rnini topgan.

Milliy davlatchilik poydevorini barpo etish jarayonida, avvalo, uning huquqiy asoslari mustahkamlanishi mamlakatning taraqqiyot yo'li, xalq taqdiri va kelajagini belgilab beradi. Vatanimizning Asosiy Qonuni tub mohiyatida ana shunday oliyjanob maqsad mujassam va u amalda o'zining yuksak samaralarini berayotganini bugun hayotning o'zi isbotlab turibdi. Diyorimizning barcha hududlarida istiqomat qiluvchi mo'min-musulmonlar ushbu Qomusda belgilab qo'yilgan haq-huquqlardan va erkinliklardan keng va bimalol foydalanmoqdalar.

Bosh Qomusning qabul qilinishi mustaqil davlatimizning davlatchilik tarixida buyuk voqea bo'ldi. Asosiy Qonunda fuqarolarning vijdon erkinligi, diniy e'tiqodi bilan bog'liq masalalarga alohida e'tibor qaratilgan.

Diyorimizda amaldagi qonunlarga ko'ra turli dinlarga e'tiqod qiluvchi va ularga e'tiqod qilmaydigan fuqarolar, har xil e'tiqodlarga mansub diniy tashkilotlar o'rtasida o'zaro murosa va hurmat o'rnatilishi ta'minlangan. Diniy va o'zga mutaassiblik, ekstremizm, munosabatlarni qarama-qarshi qo'yish va keskinlashtirishga, turli din toifalari o'rtasida ziddiyatlar chiqarish hamda ularni avj oldirishga qaratilgan xatti-harakatlarga yo'l qo'yilmaydi.

Muborak islom dini qadriyatlari boy va buyuk ma'naviyatimiz asosi ekanini e'tirof etib, Yurtboshimiz bunday deganlar: "Biz o'z millatimizni mana shu muqaddas dindan ayri holda aslo tasavvur qila olmaymiz. Diniy qadriyatlar, islomiy tushunchalar hayotimizga shu qadar singib ketganki, ularsiz biz o'zligimizni yo'qotamiz". Milliy Qomusimiz moddalari nafaqat xalqchil tamoyillarga, balki ming yillar davomida rivojlanib kelgan milliy ma'naviyatimiz asoslariga ham tayanadi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, milliy istiqlool haqidagi azaliy orzu umidlarimiz amalga oshdi. Natijada asriy qadriyatlarimiz tiklandi va rivojlanib bormoqda. Madaniyatimiz, dinimiz o'zining tarixiy, milliy, diniy va falsafiy asoslariga qaytmoqda. Ayniqsa, ma'naviy merosni o'rganish, ajdodlarimiz qoldirib ketgan turli sohalardagi asarlarini ommalashtirish, buyuk allomalar va ulug' ajdodlarimizning muborak nomlari va ijodining xalqqa qaytarib berilishi, ona tili va milliy qadriyatning rivojlanishi uchun sharoit yaratilgani o'zbek xalqi, xususan musulmonlar uchun buyuk xaloskorlik va millatning kelajak taraqqiyoti uchun qudratli kuch va omil bo'ldi.

Mustaqillik yillarida mamlakatda Islom dini ravnaqi uchun keng imkoniyatlar ochildi. Barcha islomiy qadriyatlar – masjid va madrasalarning



binolari, nodir tarixiy manbalar, osori atiqalar musulmonlarga qaytarib berildi. Ularning emin-erkin ibodat qilishlari, diniy ta'lim olishlari, diniy adabiyotlar va ommaviy axborot vositalaridan bahramand bo'lishlari, Ramazon va Qurbon hayitlarini bayram qilib keng nishonlashlari, haj va umra ziyoratlarini amalga oshirishlari uchun qulay sharoitlar yaratildi.

Asosiy Qonunimizda belgilab qo'yilganidek, davlat barcha fuqarolarga mehnat qilish, ilm olish, o'zlari xohlagan kasb-hunur egallash, bilim saviyasini oshirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratib berish kafolatini ham olgan. Shuningdek sifatli va zamonaviy tibbiy xizmat ko'rsatish borasidagi islohotlar mustaqil yurtimiz siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Zero, bugungi kunda har qaysi xalq, davlat va jamiyatning rivojlanish omili inson, uning sog'lig'i va turmush darajasiga berayotgan e'tibori, shu yo'ldagi sa'yi-harakati bilan o'lchanishi barchamizga ayon. Hazrati Inson salomatligini muhofaza qilish borasida dinimizning "Har bir dardning davosi bor davolaninglar" – degan ko'rsatmasi davlatimiz bu sohada olib borayotgan ulkan ishlar, chunonchi sog'liqni saqlash sohasini isloh qilish Davlat dasturiga hamohangdir.

Asosiy Dasturimizda har bir shaxs mehnat qilish, bilim olish huquqiga ega ekani maxsus moddalar bilan belgilab qo'yilgan. Yurtimizda bu ikki huquq sohasida islohat ishlari jadallik bilan amalga oshirilmoqda. Diyorimizning barcha aholi yashaydigan mintaqalarida aholi uchun ko'plab ish va mehnat qilish o'rinlari tashkil etilmoqda.

Demak, namozdan keyin har bir musulmon kasbu hunuri, ishi sari shoshilishi mehnatdan bosh tortmasligining zarurligi bayon qilinmoqda.

Bilim olish huquqi ham yurtimizda juda yaxshi yo'lga qo'yilgan. Bu sohada ham keng ko'lamda islohatlar olib borilmoqda. Ta'lim-tarbiya xususida har yili yangi dasturlar ishlab chiqib hayotga tatbiq etilmoqda.

Bir so'z bilan aytganda, milliy va diniy qadriyatlarni tiklash asosida har tomonlama komil insonni voyaga yetkazish, yoshlarimizni mustaqil fikrli, yurt tinchligi va xalq farovonligiga o'z hissasini qo'shadigan, Vatani va xalqiga sodiq, ma'naviyati yuksak inson qilib tarbiyalash davlatimiz siyosatining ustuvor vazifalaridan biri sifatida belgilandi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston xalqi tarixan bag'rikenglik, mehr-oqibat va o'zaro hurmat tamoyillari asosida yashab kelgan. Bu an'ana zamirida turli din va millat vakillarining bir diyor, bir davlatda tinch-totuv yashashi uchun zamin yaratilgan. Maqolada qadimiy zardushtiylikdan tortib, islom dini orqali shakllangan ma'naviy-axloqiy qadriyatlarning jamiyat taraqqiyotidagi ijtimoiy



POLAND



POLAND

ahamiyati tahlil qilindi. Bag'rikenglik – o'zbek xalqining tarixiy, madaniy va dini ongida chuqur ildiz otgan fazilat bo'lib, bu yuksak g'oya zamonaviy davlat siyosatining asosiy ustunlaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

Mustaqillik yillarida ushbu qadriyatlarning tiklanishi va rivojlantirilishi, diniy erkinlik va millatlararo totuvlikni ta'minlash borasida ulkan yutuqlarga erishildi. Asosiy Qonunimizda har bir fuqaroning vijdon erkinligi, teng huquqliligi, mehnat va ta'lim olish huquqlari kafolatlangan. Bag'rikenglik jamiyatda ijtimoiy barqarorlik va uyg'unlikning kafolati bo'lib xizmat qiladi. U o'zbek xalqining milliy o'zligining negizi, insonparvarlikning amaliy ko'rinishidir. Bugungi kunda bu qadriyatlar yosh avlod ongiga singdirilib, mustahkam g'oyaviy asos sifatida qaralmoqda. Shu bois, bag'rikenglikni yanada targ'ib qilish, uni jamiyat taraqqiyoti va barqarorligining muhim omili sifatida saqlab qolish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Каримов И.А. Юксак маънавият-енгилмас куч. -Т.: -2008.- б.б.10-11
2. Жўраев Н. Инсон ва жамият. -Т.: - 2005. — б. 181
3. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. - Тошкент: "O'zbekiston" нашриёти, 2021. - 58 б.

